

SOVET DAVRIDA ARXITEKTURA VA SHAHARSOZLIK

Axmedov To‘lqinjon Obidovich,

Rustamova Dildoraxon Qaxramon qizi

M3 20 “IOQ” guruh magistranti

Farg‘ona politexnika instituti

E mail: ahmedovtulqinjon@fer.uz

Annotatsiya: Maqolada sovet davrida arxitekturasi va shaharsozlik asoslari haqida materiallar keltirilgan. O‘sha davrda barpo etilgan bino va inshootlarning hajmiy – rejaviy, konstruktiv yechlari yuzasidan manbalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yirik obektlar, sotsialistik industriya, sanatoriyalar, loyihalash ishlari, ishchilar klubi, madaniyat saroylari, pionerlar uyi, dam olish uylari.

ARCHITECTURE AND URBAN PLANNING IN THE SOVIET PERIOD

Abstract: The article presents materials on the basics of architecture and urban planning in the Soviet era. Sources are given for space planning, design solutions for buildings and structures built at that time.

Keywords: Large scale farms, socialist industry, sanatoriums, design work, a workers' club, palaces of culture, pioneer houses, rest houses.

Sovet davrida sobiq ittifoq davlatida sotsialistik qurilish keng ko‘lamda olib borildi. Revolutsiyadan so‘ng fuqarolar urushlari natijasida vayron bo‘lgan shaharlar tashlandiq qishloq va xutorlar ko‘p edi, bularni tiklash, rivojlangan jamiyat qurish uchun, hamda kommunistik ideologiyani odamlar ongiga solish uchun kommunistlar qurilishdan keng foydalandilar. Sovet arxitekturasi shaharsozlikda sifat nuqtai – nazardan yangi etap ochib berdi.

Agrar Rossiyani kuchlik Industriallashgan va qishloq xo‘jaligi rivojlangan Davlatga aylanishi Arxitektura oldiga ham yuksak marralarni qo‘yli. Yuzlab yillar davomida qurilgan arxitektura obidalarini Burjuaziya ekspluatatorlar sinfiga mansub. Sovet arxitekturasi asosiga gumanistik g‘oyalar qiyildi. Sotsiyalistik tu shunchalar ya’ni oddiy odamlar mexnatkashlar haqida g‘amxo‘rlik tushunchalari ilgari surildi. Arxitektura faoliyatini harakteri Xalq Xokimiyatiga bo‘ysundirildi. Birinchi marotaba Qurilishni shaharlarni rekonstruksiyalashni asosiy qilib ilmiy Sotsiyalistik rejalashtirish qo‘yildi. Sotsiyalistik shaxarsozlik va arxitekturasi barcha qurilayotgan inshoatlar va komplekslarni yagona bir g‘oyaga birlashtirish va bir butun arxitektura ansanbllarini yaratish uchun shart sharoitlar yaratildi. Sovet davrini boshlanish chog‘ida birinchi tadbir, shaxar ishchilar sinfini yashash sharoitlarini yaxshilash, shaxarlardagi eng kambag‘allar yashaydigan (trushoba) kvartallaridagi zerikarli hayot tarzini yo‘qotishdan boshlandi. Sovet davlati o‘z boshidan fuqarolar urushini boshidan kechirib turgan og‘ir yillarda birinchi sanoat inshoatlari bilan bir qatorda yangi ishchilar shaxarchalari (posyolkalar) va kvartallarini qura boshladi [1-2].

Bular keyinchalik yirik sanoat korxonalarini bilan bir qatorda Sovet arxitekturasi yirik ob’ektlariga aylandi (Shatyura GESi va posyolkasi, Dubrovskiy posyolkalari va b.) Sovet arxitekturasi belgilari, Sovet sotsiyalistik industriyasining to‘ng‘ichi Volxov GES qurilishida ayniqsa yorqin namoyjn bo‘ldi. Bu bilan bir qatorda Dnep ro GES qurilishini ham eslatib o‘tish joiz bo‘ladi. O‘z vaqtida Dunyodagi eng yirik inshoatni akademik B.A.Vesnini boshchiligida ishlab chiqilgan loyixa asosida qurildi juda yirik Ekekr stansiyaning binosining monumental qiyofasi va shakli o‘lchamlari xaybatli bo‘lgan damba inshoati va GES binosi Dnepr daryosi uzra tik ko‘tarilib turibdi. Rivojlangan jamiyat qurish uchun, hamda kommunistik ideolo giyani odamlar ongiga solish uchun kommunistlar progressiv texnikaviy vositalari qo‘llanilishi va chuqur ideologik va badiiy ta’sirlar bilan yo‘g‘irilgan kompozitsi yalarni qo‘llashga yo‘naltirdilar.

Birinchi jahon urushidan keyin ittifoqda bir qancha yangi sotsiyalistik mazmun bilan boyitilgan arxitektura komplekslar barpo qilindi. 1923 yilda Moskvada birinchi

umumittifoq qishloq ho‘jalik ko‘rgazmasini kompleks –ansambli yaratildi. Bu qurilishda an’anaviy rus va jahon me‘morchiligi san’ atidan ijodiy foydalanildi va original o‘ziga xos texnikaviy uslublar ham keng qo‘llanildi. Sovet arxitekturasini buyuk asarlaridan biri Lenin mavzoleyi edi (Akademik A.Shusyev 1924 yilda boshlang‘ich yog‘ochdan so‘ng granitdan qurilgan) mavzoley kompozitsiyasi ozini soddaligi shaklini aniq bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ko‘p yillar bu mavzoley bir vaqtni o‘zida katta katta bayram namoyishlari tantanalarida tribuna vazifasini ham bajargan. Sovet madaniyati xalqchil sotsialistik xalq xarakterini o‘ziga bo‘ysundirib uning shartlari asosida yangi tipdagi qurilmalar, jamoa binolarini (Ishchilar klubi, madaniyat saroylari, pionerlar uyi va saroylari, dam olish uylari va h.k.) ommaviy ravishda qurilishga olib keldi. Bundan tashqari Teatrlar, muzeylar (Toshkentdagi A.Navoiy nomidagi akadevik opera va balet teatri ham shu jumladan), Davlat Kutubxonasi Dinamo stadioni, Moskvadagi ”Lujniki deb nomlanadigan sport inшоati” Moskvani rekonstruksiya qilish bosh rejasi (1935) ga asosan ko‘p miqdorda maktablar, kasalxohalar, dam olish uylari, sanatoriyalar, Moskva rekani 50 km.lik qirg‘og‘iga granit qoplanishi, Metro qurilishi va b.Sotsialistik industriyani o‘sishi natijasida tez vaqtlarda yangidan qurilgan. Shaxarlar Uralda “Magnitogorsk”, Ukrainada “Zaporozhye”, Uzoq sharqda Komsomol’sk, Shimolda “Igarka”, “Norilsk” “Monchegorsk va boshqalar qurildi [3].

O‘sha davrda yangi xisoblangan bu tipdagi saroylar, madaniyat uylari SSSR ning ko‘plab shaharlarida ko‘plab tirajlarda qurilgan. Bu binolardan teatr zali, o‘quv mashg‘ulotlar zali, ko‘rgazmalar gallereyalari, kutubxona va o‘qish zali va jismoniy tarbiya o‘tkazish xonalari kabilarda foydalanish ko‘zda tutilgan.

Sotsialistik rekonstruksiya rejaları sobiq Ittifoqning ko‘plab shaharlarida shu jumladan Rostov, Sverdlovsk, Chelyabinsk, Gorkiy, Novosibirsk va barcha ittifoqchi respublika markazlarida amalga oshirildi. Ko‘p joylarda bu rejani amalga oshirilishi amalda shaxarni qayta tug‘ilishiga olib keldi. Bu rekonstruksiya shaharlar ko‘rinishini xar tomonlama va chuqur ma’noda arxitektura ko‘rinishini o‘zgartirib yubordi. Yangi progressiv tuzilmalarni yaratilishi, yangi qurilish materiallarini o‘zlashtirish Qurilish

ishlarini mexanizatsiyalashtirish, qurilishni tezkor usullarini qo‘llash [4-5]. Loyihalash ishlarini Davlat darajasida yo‘lga qo‘yilishi bu kabilar Sovet arxitekturasini kuchlik usullar bilan quvvatlantirdi. Sovet arxitekturasini yangidan yaratishda aka-uka Vesninlarni arxitektura maktabi katta rol o‘ynadi. Sovet madaniyatini Sotsialistik Xalq xarakterini o‘zida singdirib yangi tipdagi qurilmalar (Ishchilar klubi, Madaniyat saroylari, pionerlar uyi, dam olish uylari) larni kehg qurilishiga sabab bo‘ldi ikkinchi jahon urushidan keyin arxitekturani rivojlanishi SSSR Xalq Xo‘jaligini qayta tiklash bilan bog‘liq bo‘ldi. Arxitekturani rivojlanishini urushdan keyingi davrlarda ayniqsa 1955 yili qurilishiga yangi texnikani keng qo‘llanilishi oqibatida qurilish soxasida juda katta sifat o‘zarishlari sodir bo‘ldi. Bu vaqtda Moskvada Ittifoqda birinchi bor osmono‘par binolar qurildi. Bulardan ahamiyatliysi Moskva Davlat universiteti binosi bo‘ldi va kompleks ko‘rinishida qurildi. Bundan tashqari irtifoqdosh Respublikalar poytaxtlarida ham misli ko‘rilmagan qurilishlar olib borlidi. Sovet arxitekturasi bunday muxim texnik yutuqlari bilan bir qatorda urushdan keying vaqtlarda yolg‘on tendensiyalar binolarni ortiqcha bezaklash kabi yolg‘on va zararli yo‘nalish ham ayon bo‘ldi. Arxitekturada binoni tashqi ko‘rinishini korsartish keng yoyildi.

1955 yildan so‘ng sovet arxitekturasi koplav yangi va muxim ob‘yektlar yaratdilar. Ular Volgograd va Bratsk GESi, Moskva markaziy stadioni, s‘yezdlar saroyi va boshqalar [6-8]. Kommunistik partiyaning XIX s‘yezdi (1952 yil) qarorida urushdan keyingi qayta qurish va tiklash ishlarini bajarishni yanada tezlashtirish maqsadida Mamlakatda temir beton zavodlarini qurish haqida qaror qabul qildi. 1954-yil 19-avgustda Sovet Xukumati qurilish uchun yig‘ma temir beton konstuksiyalar va detallar ishlab chiqarishni rivojlantirish haqida qaror qabul qildi. Bir xil ko‘rinishli Mikrorayonlar xatto ko‘cha va uylari bir biriga o‘xshash shaxar lar ko‘paydi. Zavodlarda tayorlanib quriladigan binolar tez orada eskirdi va bu binolar talabga lavob bermay qo‘ydi. Zavodlar esa o‘sha vaqt talabidan kelib–chiqib mahsulotini o‘zgartirmay 20-30 yillab ishlab chiqarda davom ettirib keldi.

Mamlakatda urushdan keyin uysiz boshpanasiz qolgan axolini tezroq uy joy bilan ta‘minlash maqsadida, binolarni planirovkasini ham eng minimal ko‘satkichlar asosida

rejalashtirildi. Unda xech qayerda bo‘lmagan 1 xonali, 2 xonali xonadon lari bo‘lgan binolar, unda ham bir kishi uchun 6.0 m.kv. dan norma bilan – qurila boshlandi. Minimalizatsiya tendensiyasi natijasida yashash sharoiti sifati orqada qolib ketdi, kichik xonalar, bir xonali kvatiralarni loyixalash o‘sha vaqtda davr talabi bo‘lgan mamlakatda tez va oz vaqtda ko‘p dan ko‘p uysizlarni uy joy bilan ta‘minlash birihchi galdagi vazifa edi [7-8]. Tez orada bu xolat odamlarni yashash sharoitlari talablariga lavob bermay qo‘ydi oradan 15-20 yillar o‘tib, odamlar bunday uylarda yashashga qiziqmay qo‘ydilar asosiy sabab uyni torligi pastligi va ilg‘orlab ketgan zamoh talabiga javob bera olmasligi edi. lekin juda ko‘plab eski planirovkali binolar hali ham iste‘molda mavjud bo‘lib turibti. Bunday binolarda individuallikni yo‘qolganligi, binoga chiroy beradigan elementlarni yo‘qligi sababli Binolarni ko‘rki ham yo‘qoldi. Bunday binolar endi shaxar chiroyini buzib turibdi xolos. Xozir bunday 5 qavatli binolarni rekonstruktsiya qilish, 4 qavatli binolar ni esa buzib tashlab o‘rniga yangi keng zamonaviy va ko‘p qavatli binolar qurish oldimizdagi eng katta vazifa bo‘lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tolkin A. Reconstruction of 5 storey large panel buildings, use of atmospheric precipitation water for technical purposes in the building //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – T. 2. – №. 12. – C. 86 89.
2. Tolqin A. Ancient greek and ancient rome architecture and urban planning //The American Journal of Engineering and Technology. – 2021. – T. 3. – №. 06. – C. 82 87.
3. T.Axmedov GOTIKA USLUBINING ARXITEKTURADAGI AHAMIYATI// Ilmiy taraqqiyot. 2021yil. 6 son. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/gotika_uslubining_arxitekturadagi_ahamiyati
4. Abdukhalimjohnovna M. U. Failure Mechanism Of Bending Reinforced Concrete Elements Under The Action Of Transverse Forces //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – T. 2. – №. 12. – C. 36 43.

5. Abdukhalimjohnovna M. U. Technology Of Elimination Damage And Deformation In Construction Structures //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – T. 3. – №. 05. – C. 224 228.
6. Mahkamov Y. M., Mirzababaeva S. M. Strength of bending reinforced concrete elements under action of transverse forces under influence of high temperatures //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 5. – C. 618 624.
7. Makhkamov Y. M., Mirzababaeva S. M. Rigidity of bent reinforced concrete elements under the action of shear forces and high temperatures //Scientific technical journal. – 2021. – T. 4. – №. 3. – C. 93 97.
8. Yokubov Sherzodbek Shavkat o‘g‘li, and Abduvohidov Parviz Abdurafiq o‘g‘li. "KOSMIK MA'LUMOTLAR YORDAMIDA YER TUZISH LOYIHA ISHLARINI OLIB BORISH." *Ta'lim fidoyilari* 25.5 (2022): 23-25.

